

## GIPERBOLANING STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL EKVIVALENTLIGI: LEKSIK, SINTAKTIK, EMOTIV VA KOMIK JIHLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada giperbolaning strukturaviy va funksional ekvivalentligi lingvostilistik hamda tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida giperbolaning leksik, sintaktik, emotiv va komik jihatlari o'rganilib, ularning turli tillarda ifodalanish xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, giperbolaning tarjima jarayonida semantik va pragmatik mosligini caqlash masalalari ko'rib chiqiladi. Natijada giperbolaning nafaqat stilistik vosita, balki kommunikativ-ekspressiv birlik sifatidagi ahamiyati asoslab beriladi.*

***Kalit so'zlar:** giperbola, ekvivalentlik, stilistika, tarjimashunoslik, leksik birlik, sintaktik qurilish, emotivlik, komik effekt, ekspressivlik, pragmatika, lingvostilistika, kommunikativ funksiya, diskurs tahlili, semantik moslik, pragmatik moslashuv, obrazli ifoda, badiiy tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

## STRUCTURAL AND FUNCTIONAL EQUIVALENCE OF HYPERBOLA: LEXICAL, SYNTACTIC, EMOTIVE AND COMIC ASPECTS

***Annotation.** This article analyzes the structural and functional equivalence of hyperbole from a linguo-stylistic and translation studies perspective. In the course of the study, lexical, syntactic, emotive and comic aspects of the Hyperbola are studied, highlighting their expressive features in different languages. Also, in the translation process of the Hyperbola, issues of drawing semantic and pragmatic compatibility are considered. As a result, the importance of hyperbole as not only a stylistic device, but also as a communicative-expressive unit, is justified.*

***Keywords:** Hyperbola, equivalence, Stylistics, translatability, lexical unit, syntactic construction, emotionality, comic effect, expressiveness, pragmatics, linguostilistics, communicative function, discourse analysis, semantic compatibility, pragmatic adaptation, figurative expression, artistic translation, intercultural communication.*

## СТРУКТУРНАЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ ГИПЕРБОЛЫ: ЛЕКСИЧЕСКИЕ, СИНТАКСИЧЕСКИЕ, ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ И КОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

***Аннотация.** В статье анализируется структурно-функциональная эквивалентность гиперболы с точки зрения лингвостилистики и переводоведения. В ходе исследования изучаются лексические, синтаксические, эмоциональные и комические аспекты гиперболы, а также особенности их выражения в разных языках. Также рассматриваются вопросы сохранения семантической и прагматической совместимости гиперболы в процессе перевода. В результате обосновывается значение гиперболы не только как стилистического средства, но и как коммуникативно-экспрессивной единицы.*

***Ключевые слова:** гипербола, эквивалентность, стилестика, переводоведение, лексическая единица, синтаксическая конструкция, эмоциональность, комический эффект, выразительность, прагматика, лингвостилистика, коммуникативная функция,*

*дискурсивный анализ, семантическая совместимость, прагматическая адаптация, образное выражение, художественный перевод, межкультурная коммуникация.*

**Kirish.** Til inson tafakkuri va kommunikativ faoliyatining asosiy vositasi sifatida nafaqat axborot uzatish, balki emotsional ta'sir ko'rsatish, baholash va estetik munosabatlarni ifodalash funksiyalarini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi stilistik vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday vositalardan biri giperbola bo'lib, u predmet yoki hodisaning xususiyatlarini ataylab mubolag'ali tarzda ifodalash orqali nutqning obrazlilikini kuchaytiradi.

Giperbola qadimdan stilistika va poetika doirasida o'rganib kelinayotgan hodisalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa badiiy adabiyot, publitsistik uslub va og'zaki nutqda uning qo'llanish darajasi yuqori bo'lib, u orqali muallif yoki so'zlovchi o'z hissiy munosabatini kuchliroq ifodalashga erishadi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda esa giperbola nafaqat stilistik vosita, balki pragmatik va kommunikativ birlik sifatida ham baholanmoqda [1].

Bugungi kunda tarjimashunoslikda giperbolaning strukturaviy va funksional ekvivalentligi masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki bir tildagi mubolag'ali ifoda boshqa tilga tarjima qilinayotganda uning semantik ma'nosi bilan bir qatorda emotsional-ekspressiv ta'siri ham saqlanishi zarur. Bu esa tarjimon oldiga giperbolaning leksik, sintaktik, emotiv va komik jihatlarini mos ravishda qayta yaratish vazifasini qo'yadi [2].

Giperbolaning strukturaviy ekvivalentligi deganda uning grammatik va sintaktik shakllarining boshqa tilda qay darajada mos kelishi tushuniladi. Funksional ekvivalentlik esa giperbolaning kommunikativ vazifasi, emotsional ta'siri va stilistik funksiyasining saqlanishini anglatadi. Ayrim hollarda tarjimada strukturaviy moslik saqlansa-da, funksional ta'sir yo'qolishi mumkin. Shu bois tarjimada funksional ekvivalentlik ko'proq ahamiyat kasb etadi [3].

Mazkur maqolaning maqsadi— giperbolaning strukturaviy va funksional ekvivalentligini tahlil qilish hamda uning leksik, sintaktik, emotiv va komik jihatlarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ✚ giperbolaning nazariy asoslarini ko'rib chiqish;
- ✚ strukturaviy va funksional ekvivalentlik tushunchalarini tavsiflash;
- ✚ giperbolaning leksik va sintaktik ifodalanish usullarini tahlil qilish;
- ✚ emotiv va komik funksiyalarini aniqlash;
- ✚ tarjima jarayonida giperbolaning ekvivalentlik muammolarini yoritish.

Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy va lingvopragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz, rus va o'zbek tillaridagi badiiy matnlar hamda publitsistik nutq namunalaridan foydalanildi.

### **Giperbolaning strukturaviy ekvivalentligi**

Tilshunoslikda ekvivalentlik tushunchasi ikki yoki undan ortiq tillardagi birliklarning ma'no va funksional jihatdan mos kelishini anglatadi. Giperbolaning strukturaviy ekvivalentligi esa uning grammatik va sintaktik qurilishining tarjima tilida qayta yaratilishi bilan bog'liqdir [4].

Giperbola ko'pincha leksik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "I have told you a thousand times" jumlasini o'zbek tiliga "Senga ming marta aytdim" tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda "a thousand times" va "ming marta" birliklari strukturaviy jihatdan mos keladi hamda mubolag'a ma'nosini saqlab qoladi.

Biroq barcha hollarda to'liq strukturaviy moslik kuzatilmaydi. Ayrim tillarda giperbola sintaktik vositalar orqali ifodalansa, boshqa tilda u leksik birliklar yordamida berilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "He cried oceans" iborasi o'zbek tiliga "u juda ko'p yig'ladi" shaklida tarjima qilinishi mumkin. Bu holatda strukturaviy moslik buziladi, ammo umumiy mazmun saqlanadi.

Sintaktik giperbola ko'pincha takror, parallel konstruksiya yoki kuchaytiruvchi gap qurilmalari orqali yuzaga chiqadi. Masalan: "I waited forever.", "Men seni asrlar davomida kutdim."

Bu kabi misollarda vaqt kategoriyasi real holatdan ancha oshirib ko'rsatilgan bo'lib, sintaktik jihatdan ham kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi [5].

### Giperbolaning leksik ekvivalentligi

Giperbolaning eng keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri leksik giperbola hisoblanadi. Bunda mubolag‘a ma‘nosi alohida so‘z yoki ibora orqali ifodalanadi. Leksik giperbolalar odatda son, hajm, miqdor yoki sifatni kuchaytirishga asoslanadi. Masalan: “million thanks”- “cheksiz minnatdorchilik”, “world’s best”-“dunyodagi eng zo‘r”

Bu birliklar real voqelikni emas, balki subyektiv baholashni ifodalaydi. Tarjimada esa ushbu emotsional-ekspressiv ta‘sirni saqlash muhimdir [6].

Ba‘zan tarjimada to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent mavjud bo‘lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi “I am starving” iborasi so‘zma-so‘z “men ochlikdan o‘lyapman” deb tarjima qilinsa-da, o‘zbek tilida tabiiyroq variant “juda ochman” shaklida bo‘lishi mumkin. Bu yerda funksional ekvivalentlik saqlanadi, ammo strukturaviy moslik qisman yo‘qoladi.

Leksik giperbolalar reklama va publitsistik matnlarda ayniqsa faol qo‘llanadi. Masalan: “incredible opportunity”-“mislisiz imkoniyat”

Bunday birliklar adresatning diqqatini jalb qilish va ishontirish funksiyasini bajaradi [7].

### Giperbolaning sintaktik ekvivalentligi

Sintaktik giperbola gap qurilishining o‘ziga xosligi orqali yuzaga keladi. Bunda takror, inversiya, parallelizm va kuchaytiruvchi konstruksiyalar muhim rol o‘ynaydi. Masalan: “I have never, never seen such beauty.”-“Men bunaqa go‘zallikni hech qachon, hech qachon ko‘rmaganman.” Takrorlash orqali emotsional kuchaytirish hosil qilinmoqda. Tarjimada aynan shu sintaktik vositani цақлаш matnning stilistik ta‘sirini kuchaytiradi.

Shuningdek, undov gaplar ham giperbolik xarakter kasb etishi mumkin: “This is the greatest day of my life!”-“Bu hayotimdagi eng buyuk (yaxshi) kun!” Bunday gaplarda sintaktik qurilish emotsional intensivikasiyani ta‘minlaydi [8].

Sintaktik ekvivalentlik tarjimada muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ba‘zan tabiiylikni caqlash maqsadida grammatik o‘zgarishlar kiritiladi. Tarjimon asosiy kommunikativ ta‘sirni yo‘qotmagan holda strukturani moslashtirishi mumkin.

### Giperbolaning emotiv funksiyasi

Giperbola nutqda emotsional-ekspressivlikni oshiruvchi eng muhim vositalardan biridir. U orqali so‘zlovchi o‘z hayrati, quvonchi, g‘azabi yoki hafsalasi pir bo‘lgan holatini kuchaytirilgan tarzda ifodalaydi. **Masalan:** “I was dying of laughter.”-“Kulaverib o‘lib qoldim.” Bu misollarda real holat emas, balki kuchli emotsional ta‘sir ifodalanmoqda. Emotiv giperbola ayniqsa og‘zaki nutqda faol qo‘llanadi va kommunikativ yaqinlikni kuchaytiradi [9].

Badiiy adabiyotda emotiv giperbola qahramon ruhiy holatini ochib berishga xizmat qiladi. Shoir va yozuvchilar his-tuyg‘ularning intensivligini oshirish uchun mubolag‘ali ifodalardan keng foydalanadilar. Masalan, sevgi, sog‘inch yoki iztirob tasvirlarida giperbolik birliklar estetik ta‘sirni kuchaytiradi.

Tarjimada emotiv funksiyani caqlash eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki turli xalqlarning emotsional tasvir vositalari o‘ziga xos bo‘ladi. Shu bois tarjimon nafaqat ma‘noni, balki emotsional fonni ham qayta yaratishi kerak.

### Giperbolaning komik funksiyasi

Giperbola ko‘pincha komik effekt hosil qilish vositasi sifatida ham qo‘llanadi. Haddan tashqari mubolag‘a tinglovchi yoki o‘quvchida kulgi uyg‘otadi. Ayniqsa satira va yumor janrlarida giperbolaning roli juda katta [10]. **Masalan:** “He eats like ten elephants.”- “U o‘nta fildek ovqat yeydi.” Bu yerda mubolag‘a real holatga mos kelmaydi, ammo aynan shu ortiqcha kuchaytirish kulgili effektini yuzaga keltiradi.

Komik giperbola kino, reklama va internet diskursida ham keng qo‘llanmoqda. Memlar va ijtimoiy tarmoq postlarida mubolag‘ali ifodalar auditoriya e‘tiborini tortish va hazil yaratish maqsadida ishlatiladi.

Tarjimada komik effektini caqlash ayniqsa murakkabdir. Chunki kulgi ko‘pincha milliy mentalitet va madaniy kontekst bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli tarjimon ayrim hollarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimadan voz kechib, pragmatik mos variantni tanlaydi.

### Giperbolaning funksional ekvivalentligi

Funksional ekvivalentlik tarjimada eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha giperbolaning kommunikativ vazifasi va stilistik ta'sirining saqlanishini anglatadi [11]. **Masalan:** "I've got tons of work."- "Ish boshimdan oshib yotibdi." Bu misolda strukturaviy moslik yo'q, biroq funksional ta'siri to'liq saqlangan. Har ikkala birlik ham ishning juda ko'pligini emotsional tarzda ifodalaydi.

Funksional ekvivalentlik ayniqsa badiiy tarjimada katta ahamiyat kasb etadi. Chunki muallif uslubini saqlash uchun giperbolaning ekspressiv kuchi yo'qolmasligi zarur. Shu jihatdan tarjimon nafaqat tilshunos, balki stilistik vositalarni qayta yaratuvchi ijodkor sifatida ham namoyon bo'ladi.

### Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, giperbola tilning muhim stilistik vositalaridan biri sifatida nutqning ekspressivligi, ta'sirchanligi va obrazlilikini oshirishda muhim rol o'ynaydi. U nafaqat semantik birlik, balki kommunikativ-pragmatik vosita sifatida ham faol funksiyaga ega.

Maqola doirasida giperbolaning strukturaviy va funksional ekvivalentligi tahlil qilinib, uning leksik, sintaktik, emotiv va komik jihatlari yoritildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, tarjimada har doim ham to'liq strukturaviy moslikka erishib bo'lmaydi. Biroq funksional ekvivalentlikni saqlash matnning stilistik va emotsional ta'sirini yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, giperbolaning emotiv va komik funksiyalari uning kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa badiiy va publitsistik matnlarda mubolag'a vositasida o'quvchi yoki tinglovchiga kuchli ta'sir ko'rsatiladi. Umuman olganda, giperbolaning strukturaviy va funksional ekvivalentligini o'rganish stilistika, pragmatika va tarjimashunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kelgusida mazkur masalani qiyosiy tilshunoslik va diskurs tahlili doirasida yanada chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmanova O.S. Dictionary of Linguistic Terms. – Moscow: Soviet Encyclopedia, 1966.
2. Arnold I.V. Stylistics. Modern English. – Moscow: Flinta, 2002.
3. Galperin I.R. Stylistics of the English Language. – Moscow: Vysshaya shkola, 1981.
4. Komissarov V.N. Theory of Translation. – Moscow: Higher School, 1990.
5. Barkhudarov L.S. Language and Translation. – Moscow: International Relations, 1975.
6. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.
8. Vinogradov V.S. Introduction to Translation Studies. – Moscow: Institute of General Secondary Education, 2001.
9. Maslova V.A. Linguoculturology. – Moscow: Academy, 2001.
10. Leech G. Language in Literature. – London: Longman, 2008.
11. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.